Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BADIIY MATNDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK TAHLILI (CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARI TIMSOLIDA)

Baxshullayeva Nozima Navro‘zovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23673325

Annotatsiya: Mazkur maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida badiiy tasvir yaratish uchun qo‘llangan frazeologik birliklar, ularning qahramonlar ruhiy holatini ochish va muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishdagi o‘rni yoritiladi.
Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, badiiy matn, “Kecha va kunduz”.

Tilshunoslikda frazeologizm — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topib, ma’no jihatidan yaxlitlashgan, ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va tarkibiy barqarorligi bilan ajralib turadigan birlikdir. Frazeologiya ana shunday birliklarning tuzilishi, ma’nosi va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. (2.45)

Turkiy frazeologiyaning shakllanishi va taraqqiyotida G. K. Kenesboyev hamda Sh. U. Rahmatullayev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. XX asr o‘rtalaridan boshlab frazeologik birliklarni tizimli o‘rganish kuchaydi. Bu yo‘nalishda Sh. U. Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining asoslari”, B. Yo‘ldoshevning o‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasiga oid tadqiqotlari hamda boshqa ilmiy ishlar alohida ahamiyatga ega. (2.8)

XX asrning 60-yillaridan boshlab frazeologiyani o‘rganishda yangi metodlar qo‘llanib, nazariy qarashlar rivojlandi. Natijada frazeologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. (3.19)

“Kecha va kunduz” nafaqat adabiy, balki ma’rifiy ahamiyatga ham ega asardir. Dilmurod Quronov Cho‘lpon romanini o‘zbek nasrining taraqqiyotida muhim bosqichni boshlab bergan asar sifatida baholaydi. Olimning fikricha, roman o‘zbek romanchiligi tarixida alohida o‘rin tutadi. (5.64)

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili, xususan, yozuvchi uslubiga xos frazeologik birliklarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Barqaror birikmalar tilning obrazliligi va emotsionalligini oshiruvchi tayyor lisoniy vositalar bo‘lib, adibning individual uslubini namoyon etadi. (5.32)

Asarning badiiy quvvatini ta’minlashda muallif mahorat bilan qo‘llagan barqaror birikmalar alohida o‘rin tutadi. Ular shunchaki bezak emas, balki qahramonlar xarakterini ochish va xalq nutqining jonli manzarasini yaratishga xizmat qiladi. (6.95)

Cho‘lpon ijodida frazeologik birliklarning kontekstual imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Ayrim iboralar odatiy ma’nosini saqlagan holda qo‘llansa, boshqalari kontekst ta’sirida qo‘shimcha emotsional yoki baholovchi ma’no kasb etadi. Quyida romanda uchraydigan iboralardan sakkiztasi tahlil qilinadi.

1. “Qovog‘idan qor yog‘moq”

“Salti — qovog‘idan doim qor yog‘ib turgan sovuq bir so‘fini ko‘radi.” (“Kecha va kunduz”, 9-bet).

“Qovog‘idan qor yog‘moq” iborasi insonning kayfiyati yomonligi, g‘azab yoki norozilik holati hamda sovuq muomalasini bildiradi. Asarda bu ibora so‘fining tashqi ko‘rinishi orqali uning salbiy ruhiy holatini tasvirlaydi va o‘quvchida obraz haqida dastlabki bahoni shakllantiradi.

2. “Ta’bini xira qilmoq”

“Uning yorug‘ ta’bini xira qilmasdan, o‘z onasi...” (“Kecha va kunduz”, 78-bet).

“Ta’bini xira qilmoq” iborasi kayfiyatni buzmoq, kishining ko‘nglini g‘ash qilmoq ma’nolarida qo‘llanadi. Kontekstda u boshqa insonning ruhiy osoyishtaligini buzmaslik istagini ifodalaydi. Varianti: “ta’bi xira bo‘ldi”. Sinonimi: “ta’bi tirriq bo‘ldi”. (7.481)

3. “Ajalidan besh kun burun”

“Yo yosh narsani sil qilib, ajalidan besh kun burun o‘ldirmoqchimisiz?” (“Kecha va kunduz”, 35-bet).

“Ajalidan besh kun burun” birikmasi o‘z vaqtidan oldin, bevaqt yuz beradigan holatni anglatadi. Asarda u hayot uchun xavfli vaziyatni ta’kidlab, so‘zlovchining xavotiri va e’tirozini kuchaytiradi. (7.35)

4. “Osmonlarga ko‘tarib yozmoq”

“...deb osmonlarga ko‘tarib yozishadi...” (“Kecha va kunduz”, 98-bet).

Mazkur ibora kimnidir yoki nimanidir haddan tashqari maqtash, ortiqcha ulug‘lash ma’nosini anglatadi. Kontekstda u maqtovning me’yoridan oshganini bildirishi va muallifning kinoyaviy munosabatini yuzaga chiqarishi mumkin.

5. “Ko‘ngli o‘rniga tushmoq”

“Xo‘jayin, ko‘nglingiz o‘rniga tushdi, shekilli?” (“Kecha va kunduz”, 102-bet).

“Ko‘ngli o‘rniga tushmoq” iborasi xotirjam bo‘lmoq, tinchlanmoq ma’nosini anglatadi. Savol shaklida qo‘llanishi suhbatdoshning holatini tekshirish bilan birga, vaziyatga qarab kinoya yoki shubhani ham ifodalashi mumkin. Varianti: “ko‘ngli joyiga tushdi”. Antonimik ifoda: “yuragiga g‘ulg‘ula tushdi”. (7.281)

6. “Ko‘nglini yozmoq”

“Uch-to‘rt aylanib ko‘nglimni yozib kelay...” (“Kecha va kunduz”, 126-bet).

“Ko‘nglini yozmoq” iborasi sayr qilish yoki boshqa mashg‘ulot orqali ko‘ngildagi siqilish va xafagarchilikni tarqatish, yengillik his qilish ma’nosida keladi. Birinchi shaxs shaklida qo‘llanishi qahramonning ichki ehtiyoji va ruhiy holatini bevosita ko‘rsatadi.

7. “Rangi o‘chmoq”

“Rangi o‘chgan edi...” (“Kecha va kunduz”, 163-bet).

“Rangi o‘chmoq” iborasi qo‘rquv, hayajon yoki boshqa kuchli hissiyot sabab yuzdagi tabiiy rangning yo‘qolishini anglatadi. U qahramonning ichki kechinmasini tashqi belgi orqali ifodalab, tasvirning ko‘rgazmaliligini oshiradi. Variantlari: “rangida qon qolmadi”, “rangida quti qolmadi”. Sinonimlari: “rangi bo‘z bo‘lib ketdi”, “rangi o‘chdi”. (7.448)

8. “Fe’li qaytmoq”

“Yana fe’li qaytdi cholning”, deb o‘yladi kampir.” (“Kecha va kunduz”, 306-bet).

“Fe’li qaytmoq” iborasi kishining kayfiyati yoki munosabati o‘zgarib, avvalgi holatidan qaytishini anglatadi. Kampirning ichki fikri orqali cholning o‘zgaruvchan fe’l-atvori baholanadi. Iboraning pragmatik vazifasi — qahramonga nisbatan munosabatni va kundalik muloqotdagi norozilik ohangini ochishdir. Yaqin variantlari: “fe’li aynidi”, “fe’li buzildi”.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda frazeologik birliklar muhim lingvistik va pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘lib, asarning mazmuniy teranligi, badiiy ta’sirchanligi hamda obrazlilik xususiyatlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan frazeologik birliklar yozuvchining xalq tilidagi boy ifoda imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi. Mazkur birliklar orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari, hissiy holatlari, o‘zaro munosabatlari va voqea-hodisalarga nisbatan munosabati yorqin ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamid Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”. Toshkent, 2023.
2. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”. Toshkent, 1966.
3. Yo‘ldoshev B. “O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamdataraqqiyoti”. Samarqand, 2007.
4. Ginzburg G. A. “A Course in Modern English Lexicology”. 1966.
5. Quronov D. “Cho‘lpon nasri poetikasi”. Toshkent, 2010.
6. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Toshkent, 2010.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Risiyeva K. “O‘zbek tilifrazeologik lug‘ati”. Toshkent, 2022.